Choriyeva Lobar Fayzullo qizi, Teshaboyeva Zamira Sabirovna, Safarov Azamat Rasul o'g'li	
Hozirgi kun pedagogi.....	594
Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi	
"Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati	598
Ibragimova Farangiza Oybekjon qizi	
Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-pedagogik muammolarning shakllanish omillari va bartaraf etish yo'llari	602
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga tayyorlashda strategik menejmentning o'rni va ahamiyati.	607
Mannonova Barno	
Scientific-Theoretical Bases of Developing Students' Creative Ability Through Folk Practical Art	611
Ruziyeva Mekka Shukhrat kizi	
3-sinf ona tili darslarida integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	615
Jurayeva Dildora Ilhom qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	618
Soatov E. M.	
Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati	623
Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar	626
Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna	
O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	631
Mapruza Embergenova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati	636
Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi	
Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari	641
Narzikulov Javohir Ikromovich	
Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
Д. Б. Бабаева	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике	750
Шарипов Одилжлон Гуломжон угли	



Choriyeva Lobar Fayzullo qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, magistr

Teshaboyeva Zamira Sabirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, PhD

Safarov Azamat Rasul o'g'li
EMU universiteti, PhD
ORCID: 0009-0004-1209-8313

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA VIRTUAL REALLIK ASOSIDAGI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda virtual reallik texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi pedagoglarning metodik, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishda VR texnologiyalarining imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim hamda tajribaviy o'qitish konsepsiyalari asosida VR treninglarining afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, ota-onalar bilan muloqot, nizoli vaziyatlarni boshqarish, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar bilan ishlash hamda emotsional zo'riqishli holatlarda qaror qabul qilishga oid pedagogik ssenariylar tavsiflangan. Tadqiqot natijalari VR asosidagi mashg'ulotlar pedagoglarda xavfsiz muhitda takroriy mashq qilish, refleksiya yuritish va tezkor pedagogik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatadi. Ilmiy yangilik sifatida maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan VR asosidagi amaliy model taklif etilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, maktabgacha ta'lim, pedagog, virtual reallik, innovatsion texnologiya, metodik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, refleksiya.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of using virtual reality technologies in the development of professional competence among preschool educators. The aim of the study is to identify the potential of VR technologies in enhancing methodological, communicative, and innovative competencies of teachers. Based on the competency-based approach, activity-oriented learning, and experiential learning concepts, the pedagogical advantages of VR training are analyzed. The article also describes practical preschool scenarios, including parent-teacher communication, conflict management, working with children with special educational needs, and decision-making in emotionally demanding situations. The findings indicate that VR-based training enhances repeated practice in a safe environment, reflective thinking, and rapid pedagogical decision-making. As a scientific contribution, a practical VR-based model for developing the professional competence of preschool educators is proposed.

Key words: professional competence, preschool education, educator, virtual reality, innovative technology, methodological competence, communicative competence, reflection.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические и практические аспекты использования технологий виртуальной реальности в формировании профессиональной компетентности педагогов дошкольных образовательных организаций. Цель исследования заключается в определении потенциала VR-технологий в развитии методической, коммуникативной и инновационной компетентности педагогов. На основе компетентностного подхода, деятельностного обучения и концепции experiential learning проанализированы преимущества VR-тренингов. Описаны педагогические ситуации, характерные для дошкольного образования: взаимодействие с родителями, управление конфликтными ситуациями, работа с детьми с особыми образовательными потребностями, а также принятие решений в эмоционально напряжённых условиях. Результаты исследования показывают, что VR-занятия способствуют развитию навыков многократной практики в безопасной среде, рефлексии и оперативного принятия педагогических решений. В качестве научной новизны предложена практическая модель развития профессиональной компетентности педагогов дошкольного образования на основе виртуальной реальности.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, дошкольное образование, педагог, виртуальная реальность, инновационная технология, методическая компетентность, коммуникативная компетентность, рефлексия.



KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida pedagog faoliyatining sifati nafaqat nazariy bilim darajasi, balki real pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, bolalar va ota-onalar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonida zamonaviy metod va vositalardan foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish va takomillashtirish masalasi zamonaviy maktabgacha ta'lim oldidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sifati, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishi sohani takomillashtirishning muhim omili sifatida e'tirof etilgan ^[1].

Shuningdek, maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga oid normativ hujjatlar hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti pedagogning bilim, ko'nikma va malakalariga minimal talablarni belgilab, kompetentlikni tizimli ravishda oshirish zarurligini ko'rsatadi ^[2; 3]. Mazkur talablar pedagogning nafaqat o'quv-metodik tayyorgarligini, balki kommunikativ, innovatsion, axborot-kommunikatsion va refleksiv salohiyatini ham qamrab oladi.

Maqolaning obyekti maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy faoliyati hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida virtual reallik asosidagi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlaridir. Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda virtual reallik texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini asoslash va shu asosda amaliy model taklif qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini aniqlash, VR texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish, maktabgacha ta'lim uchun mos ssenariylarni ishlab chiqish va ularning natijadorligini baholash vazifalari belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagog kasbiy kompetentligi tushunchasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ko'p qirrali kategoriya sifatida talqin qilinadi. Ilmiy manbalarda u pedagogning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy fazilatlarini, muloqot madaniyati, kasbiy qadriyatlarini va innovatsion faoliyatga tayyorligi integratsiyasi sifatida tavsiflanadi. Maktabgacha ta'limga oid tadqiqotlarda esa tarbiyachining metodik tayyorgarligi, bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ish olib borishi, o'yin va rivojlantiruvchi faoliyatni tashkil etish mahorati hamda ota-onalar bilan hamkorlik madaniyati kompetentlikning muhim ko'rsatkichlari sifatida ajratib ko'rsatiladi ^[7].

So'nggi yillarda virtual reallik texnologiyalari o'qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda istiqbolli vosita sifatida ko'rilmogda. *Frontiers in Virtual Reality* jurnalida chop etilgan tizimli sharh va meta-tahlil natijalariga ko'ra, 2014–2024-yillar oralig'idagi tadqiqotlarda VR qo'llanilgan o'qituvchi ta'limi ijobiy o'rtacha samaraga ega ekani aniqlangan ^[4]. Bu esa virtual muhitda tashkil etilgan mashg'ulotlar pedagoglarning amaliy qaror qabul qilish, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish va turli vaziyatlarda moslashuvchan strategiyalarni qo'llashiga yordam berishini ko'rsatadi.

Erta yoshdagi ta'lim uchun olib borilgan alohida tadqiqotlarda VR muhittari bo'lajak va amaliyotchi pedagoglar uchun nazariya hamda real faoliyat o'rtasidagi tafovutni kamaytirishi, xavfsiz sharoitda muloqot va boshqaruv ko'nikmalarini mashq qilish imkonini berishi qayd etilgan ^[5]. Ayrim tadqiqotchilar VRning pedagog shaxsida professional o'ziga ishonchni kuchaytirishi, refleksiv faoliyatni rivojlantirishi va raqamli savodxonlikni oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar ^[6]. Shu bilan birga, VR vositalarining narxi, texnik infrastruktura, ssenariylarning yetarli darajada moslashtirilmaganligi hamda ayrim foydalanuvchilarda noqulaylik tug'dirishi kabi muammolar ham mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda asosan umumiy o'qituvchi tayyorlash jarayoni ko'proq yoritilgan bo'lib, aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga moslashtirilgan model va ssenariylar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, unda maktabgacha ta'lim amaliyotida tez-tez uchraydigan vaziyatlar asosida VR treninglarining tuzilmasi va kompetentlikka ta'sir mexanizmi ochib beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-taqqoslash, tizimli yondashuv, modellashtirish, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, suhbat va tajriba-sinov usullaridan foydalanildi. Nazariy-metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim va Kolbning tajribaviy o'qitish g'oyalari olindi. Kompetensiyaviy yondashuv pedagog shaxsida kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlarini kompleks tarzda shakllantirishni ko'zda tutadi. Tajribaviy o'qitish esa amaliy vaziyatga kirish, tajriba orttirish, refleksiya va qayta qo'llash zanjiri orqali barqaror o'zlashtirishga erishishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning mantiqiy tuzilmasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: diagnostika, VR trening, amaliy mashg'ulot, baholash va natija. Diagnostika bosqichida pedagoglarning metodik, kommunikativ va innovat-

sion kompetensiyalarining boshlang'ich holati aniqlanadi. Keyingi bosqichda virtual reallik asosidagi ssenariylar yordamida turli pedagogik vaziyatlar modellashtiriladi. So'ng amaliy mashg'ulotlarda olingan tajribalar mustahkamlanadi, yakunda esa kuzatuv, test, so'rovnom va ekspert baholash orqali natijalar umumlashtiriladi.

VR ssenariylarini tanlashda maktabgacha ta'lim amaliyotida uchraydigan eng muhim vaziyatlar tanlab olindi. Jumladan, ota-ona bilan murakkab muloqot, bolalar o'rtasidagi nizoni bartaraf etish, alohida ta'lim ehtiyojli bola bilan ishlash, emotsional bosim sharoitida pedagogik qaror qabul qilish hamda mashg'ulot davomida bolalar qiziqishini ushlab turish kabi holatlar asosiy ssenariy sifatida belgilandi. Har bir ssenariyda pedagogning vaziyatni tahlil qilishi, to'g'ri nutqiy strategiyani tanlashi, emotsiyalarni boshqarishi, refleksiya yuritishi va muqobil yechim taklif qilishi mezon sifatida olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Virtual reallik asosidagi texnologiyalar pedagogga real faoliyatga juda yaqin, ammo xavfsiz va boshqariladigan muhitda tajriba orttirish imkonini beradi. An'anaviy malaka oshirish mashg'ulotlarida pedagog asosan ma'ruza yoki seminar shaklida nazariy tavsiyalarni eshitadi. VR treninglarida esa u bevosita vaziyat ichiga kiradi, turli qarorlarni sinab ko'radi, xatolar oqibatini kuzatadi va qayta mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kasbiy ko'nikmalarning mustahkam shakllanishiga, ayniqsa tezkor muloqot va moslashuvchanlikni talab etuvchi vaziyatlarda yanada samarali natija berishiga xizmat qiladi ^[4; 5].

Maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun VR texnologiyalarining samaradorligi, avvalo, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ota-ona bilan murakkab suhbat ssenariysida pedagog o'z fikrini aniq, muloyim va professional tarzda ifodalashni mashq qiladi. Nizoli vaziyatlarni boshqarish ssenariysi esa bolalar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish, vaziyatga mos til va xatti-harakatni tanlash, hissiy fonni muvozanatlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Alohida ta'lim ehtiyojli bolalar bilan bog'liq ssenariylar pedagogda individual yondashuv, sabr-toqat, kuzatuvchanlik va metodik moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

1-jadval: Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda VR texnologiyalarining funksional imkoniyatlari

Kompetensiya turi	Mazmuni	VRdagi pedagogik vaziyat	Kutilayotgan natija
Metodik kompetensiya	Mashg'ulotni rejalashtirish, metod tanlash, vaziyatga moslashish	Interaktiv mashg'ulotni tashkil etish, bolalar diqqatini boshqarish	Pedagogik vaziyatga mos metodni tez tanlay olish
Kommunikativ kompetensiya	Ota-ona, bola va hamkasb bilan samarali muloqot	Ota-ona bilan suhbat, nizoli vaziyatni yumshatish	Muloqot madaniyati va nutq strategiyasining rivojlanishi
Innovatsion kompetensiya	Yangi vositalar va raqamli yechimlardan foydalanish	VR platformasi orqali ta'limiy topshiriqlarni bajarish	Raqamli pedagogik savodxonlikning ortishi
Refleksiv kompetensiya	O'z faoliyatini tahlil qilish va xatolar ustida ishlash	Vaziyatdan so'ng qayta ko'rish va muhokama	O'zini baholash va takomillashtirishga tayyorlik

Jadvaldan ko'rinadiki, VR texnologiyasi faqat texnik vosita emas, balki kasbiy kompetensiyaning bir necha tarkibiy qismini bir vaqtda rivojlantiruvchi integrativ pedagogik muhit vazifasini bajaradi. Ayniqsa, muloqot va emotsional boshqaruv bilan bog'liq vaziyatlarda bir holatni qayta-qayta mashq qilish imkoniyati pedagogning o'ziga ishonchini oshiradi, xatolarni xavfsiz sharoitda ko'rib chiqishga va muqobil yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi ^[6].

2-jadval: VR asosidagi mashg'ulotlar ta'sirida kasbiy kompetensiya ko'rsatkichlarining o'sishi

Kompetensiya ko'rsatkichi	Dastlabki holat (%)	Yakuniy holat (%)	O'sish (%)
Metodik kompetensiya	45	78	33
Kommunikativ kompetensiya	50	82	32
Innovatsion kompetensiya	40	75	35

Ushbu natijalar VR asosidagi mashg'ulotlar pedagoglarning metodik, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Eng katta o'sish innovatsion kompetensiyada kuzatilgani pedagoglarning raqamli vositalar bilan ishlashga tayyorligi oshganini bildiradi. Kommunikativ kompetensiyadagi yuqori ko'rsatkich ota-ona bilan muloqot, nizoli vaziyatlarni boshqarish va bolalar bilan emotsional aloqani to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratilgan ssenariylarning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Metodik kompetensiyaning o'sishi esa mashg'ulotni loyihalash, usul tanlash va vaziyatga moslashish mahorati kuchayganini anglatadi.



Shu bilan birga, VR texnologiyasini joriy etishda ayrim cheklovlar ham mavjud. Ular qatoriga maxsus qurilmalarning mavjud emasligi, dasturiy ssenariylar bazasining yetarlicha boy emasligi, texnik ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj va ayrim holatlarda virtual muhitning real vaziyatni to'liq aks ettira olmasligi kiradi. Shuning uchun VR texnologiyasidan alohida vosita sifatida emas, balki seminar, amaliy mashg'ulot, metodik tahlil, mentorlik va kuzatuv bilan integratsiyada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi ^[4].

VR asosidagi kompetentlik modelining tarkibiy tuzilmasi. Mazkur modelning amaliy qiymati shundaki, u kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonini maqsad, mazmun, texnologiya va natija kabi o'zaro bog'liq komponentlarda ko'rsatib beradi.

3-jadval: VR asosidagi kasbiy kompetentlik modeli

Maqsad	Mazmun	Texnologiya	Natija
Kasbiy rivojlanishni ta'minlash	Pedagogik vaziyatlar va kasbiy topshiriqlar	VR simulyatsiyalar, interaktiv treninglar, qayta mashq	Kompetent, moslashuvchan va refleksiv pedagog
Muloqotni takomillashtirish	Ota-ona, bola va hamkasb bilan munosabatlar	Dialogik ssenariylar, vaziyatli rol mashqlari	Kommunikativ kompetensiyaning oshishi
Raqamli tayyorgarlikni rivojlantirish	Innovatsion vositalardan foydalanish	VR platforma, raqamli tahlil, video-refleksiya	Innovatsion kompetensiyaning ortishi

Bu esa pedagogni faqat bilim oluvchi emas, balki vaziyatda faol ishtirok etuvchi, tajriba to'plovchi va o'z faoliyatini tahlil qiluvchi subyekt sifatida ko'rishga imkon yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda virtual reallik asosidagi texnologiyalar samarali pedagogik vosita bo'la olishini ko'rsatdi. VR pedagogga murakkab pedagogik vaziyatlarni oldindan modellashtirish, xatolardan xavfsiz muhitda saboq olish, o'z faoliyatini qayta tahlil qilish va yangi strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, kommunikativ, metodik va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirishda uning didaktik salohiyati yuqori ekani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-595, 16.12.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. 867-son, 20.12.2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. 423-son, 08.07.2025.
4. Han X., et al. Using virtual reality for teacher education: a systematic review and meta-analysis of literature from 2014 to 2024 // *Frontiers in Virtual Reality*. – 2025.
5. Lee Q., et al. Harnessing the power of virtual reality experiences to enrich the professional experiences of early childhood pre-service teachers // *Education Sciences*. – 2025. – Vol. 15. – No. 5.
6. Nissim Y., Weissblueth E. Virtual reality as a vehicle to transform teachers' personal self-efficacy into professional self-efficacy // *Cogent Education*. – 2024. – Vol. 11. – No. 1.
7. Kozak L., Popovych O., Ivanova V., Harashchenko L., Teslenko S. Teaching professional competence in preschool education // *Amazonia Investiga*. – 2024. – Vol. 13. – No. 73. – P. 114–127.
8. Pendergast D., O'Brien M., Prestridge S., Exley B. Self-efficacy in a 3-dimensional virtual reality classroom: initial teacher education students' experiences // *Education Sciences*. – 2022. – Vol. 12. – No. 6.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.